



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3856
2026 - yil 15 - Iyun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

Tamaki va alkogol mahsulotlari iste'moliga oid ogohlantiruvchi belgilar hamda axborot lavhalarini joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi [Qonuniga](#) muvofiq **buyuraman:**

1. Tamaki va alkogol mahsulotlari iste'moliga oid ogohlantiruvchi belgilar hamda axborot lavhalarini joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizom 1-[ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.
2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Transport vazirligi, Milliy gvardiya va O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.
4. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Vazir
26-May 2026-yil
4-son



ADILOV ELDAR
ERKINOVICH

Kelishildi:

Vazir
21-Aprel 2026-yil



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Vazir
03-Aprel 2026-yil



TASHPULATOV AZIZ
ANVAROVICH

Rais
04-Fevral 2026-yil



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

Qo'mondon
04-Fevral 2026-yil



TASHMATOV BAXODIR
XAMIDOVICH

Vazir
03-Fevral 2026-yil



MAXKAMOV ILXOM
RUSTAMOVICH

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil 26-maydagi 4-son buyrug'iga
1-ILOVA

**Tamaki va alkohol mahsulotlari iste'moliga oid ogohlantiruvchi
belgilar hamda axborot lavhalarini joylashtirish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom jamoat joylarida alkohol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi belgilarni, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish hamda tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylar to'g'risidagi axborot beruvchi lavhalarni, shuningdek tibbiy ogohlantirish namunalari tayyorlash hamda joylashtirish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

alkohol mahsulotlari – oziq-ovqat xom ashyosidan olingan etil spirtidan va (yoki) tarkibida spirt bo'lgan oziq-ovqat mahsulotidan foydalangan yoki foydalanmagan holda ishlab chiqarilgan, tarkibida etil spirtining hajmiy ulushi bir yarim foizdan yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti;

tamaki mahsuloti – tarkibida xomashyo sifatida tamaki bargi va (yoki) tamaki o'simligining boshqa qismlari mavjud bo'lgan mahsulot;

tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalari – tarkibida nikotin bo'lgan yoki nikotin bo'lmagan iste'molchi tomonidan nafas orqali yutiladigan aerosolni (bug'ni, tutunni) olish uchun foydalaniladigan elektron yoki boshqa asboblari (moslamalar), shu jumladan nikotin yetkazib berishning elektron tizimlari, tamakini qizdirish tizimlari, chilimlar, trubkalar, mushtuklar, shuningdek ularning tarkibiy qismlari va elementlari (bundan tibbiy asbob-uskunalar va tibbiy buyumlar mustasno).

2. Tasarrufida (mulkida, egaligida, foydalanishida) jamoat joylarida joylashgan hududlar, binolar (xonalar), inshootlar va boshqa obyektlar, shuningdek jamoat transporti bo'lgan jismoniy shaxslar va (yoki) korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mas'ul **shaxslari** mazkur Nizomga muvofiq quyidagilarning tayyorlanishini va joylashtirilishini ta'minlaydi:

jamoat joylarida alkohol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi belgilarni;

tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylar to'g'risidagi axborot beruvchi lavhalarni;

tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylarda joylashtiriladigan tibbiy ogohlantirish namunalari.

3. Ogohlantiruvchi belgilar, axborot beruvchi lavhalar hamda tibbiy ogohlantirish namunalari aniq, ravshan va hammaga ko'rinadigan tarzda ifodalanishi lozim hamda turli materiallardan tayyorlanishi, shuningdek bosma shaklda yoki elektron axborot vositalari orqali aks ettirilishi mumkin.

4. Ogohlantiruvchi belgilar, axborot beruvchi lavhalar va tibbiy ogohlantirish namunalari davlat tilida tayyorlanadi hamda boshqa tillardagi matnlar bilan to'ldirilishiga yo'l qo'yiladi.

2-bob. Ogohlantiruvchi belgilar, axborot beruvchi lavhalar va tibbiy ogohlantirish namunalari

5. Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi belgi mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq tayyorlanadi va joylashtiriladi.

6. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi belgi mazkur Nizomning 2-ilovasiga asosan tayyorlanadi va joylashtiriladi.

7. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylar to'g'risidagi axborot beruvchi lavha mazkur Nizomning 3-ilovasiga ko'ra tayyorlanadi va joylashtiriladi.

8. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylarda joylashtiriladigan tibbiy ogohlantirish namunalari mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq tayyorlanadi va joylashtiriladi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

9. Ogohlantiruvchi belgilar, axborot beruvchi lavhalar hamda tibbiy ogohlantirish namunalari yaroqsiz holga kelganda hamda ulardagi tasvir va (yoki) matnni aniq ko'rish yoki o'qish imkoniyati bo'lmaganda, ular yangilari bilan almashtiriladi.

10. Mazkur Nizomning buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Tamaki va alkogol mahsulotlari iste'moliga oid ogohlantiruvchi
belgilar hamda axborot lavhalarini joylashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

**Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish taqiqlanganligi haqidagi
ogohlantiruvchi belgining namunasi, uni tayyorlash va joylashtirish**

1. Alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi belgi:



2. Ogohlantiruvchi belgi alkogol mahsulotlarini ish joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, xiyobonlarda, bog'larda, barcha turdagi jamoat transportida va boshqa jamoat joylarida joylashtirilishi lozim (bundan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, shu jumladan alkogol mahsulotlari quyib realizatsiya qilishga ruxsat berilgan umumiy ovqatlanish korxonalari, shuningdek to'y, yubiley va boshqa tantanalar hamda marosimlar o'tkaziladigan joylar [mustasno](#)).

3. Ish joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, xiyobonlarda, bog'larda va boshqa jamoat joylarida joylashtiriladigan ogohlantiruvchi belgining o'lchami kamida A5 shaklida (148 mm x 210 mm) bo'lishi lozim.

4. Barcha turdagi jamoat transportida joylashtiriladigan ogohlantiruvchi belgining o'lchami kamida 50 mm x 50 mm bo'lishi hamda ogohlantiruvchi belgi yo'lovchilarga ko'rinadigan joyda joylashtirilishi lozim.

5. Binolar, xonalar va ochiq hududlarda joylashtiriladigan ogohlantiruvchi belgi hammaga ko‘rinadigan joyda, yerdan (poldan) kamida 1,5 metr va 2,5 metrdan oshmaydigan balandlikda joylashtirilishi kerak.

6. Ogohlantiruvchi belgi “Alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish taqiqlanadi” degan yozuv hamda ushbu talabni buzganlik uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan javobgarlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan birga joylashtirilishi mumkin.

Tamaki va alkogol mahsulotlari iste'moliga oid ogohlantiruvchi
belgilar hamda axborot lavhalarini joylashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
2-ILOVA

**Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, shuningdek tamakini hamda
nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish taqiqlanganligi
haqidagi ogohlantiruvchi belgining namunasi,
uni tayyorlash va joylashtirish**

1. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, shuningdek tamakini hamda nikotinni
iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi
belgi:



2. Ogohlantiruvchi belgi quyidagi jamoat joylarining hammaga ko'rinadigan
joylarida, shu jumladan binolar (xonalar) hududiga kirish joylarida joylashtirilishi shart
(bundan tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini
hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan
joylar mustasno):

savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida, shu jumladan umumiy ovqatlanish
[korxonalarida](#);

kinoteatrlarda, teatrlarda, sirkalarda, konsert, ko'rik va ko'rgazma zallarida hamda ommaviy dam olish uchun mo'ljallangan boshqa yopiq [inshootlarda](#);

klublarda, diskotekalarda, kompyuter zallarida, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (bo'sh vaqt o'tkaziladigan) [joylarda](#);

muzeylarda, axborot-kutubxona muassasalarida va [ma'ruzaxonalarda](#);

mahalliy va uzoqqa qatnaydigan poyezdlarda, daryo kemalarida, avtobuslarda, metropoliten vagonlarida, taksida, shahar elektr transportida, havo kemalarida, shuningdek jamoat transportining boshqa [turlarida](#);

yer osti o'tish joylarida, metropoliten stansiyalarida, transport bekatlarida va avtotransport vositalari vaqtinchalik saqlanadigan yopiq [joylarda](#);

temir yo'l vokzallari, avtovokzallar, aeroportlar, daryo bandargohlari, metropoliten stansiyalariga kirish joyidan kamida besh metr masofada bo'lgan ochiq havodagi [joylarda](#);

yong'in xavfi mavjud bo'lgan joylarda, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish [shoxobchalarida](#);

aeroportlarning, temir yo'l va avtomobil vokzallarining, daryo bandargohlarining [binolarida](#);

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va davlat organlarining binolarida, shu jumladan ish joyida, yo'laklarda, liftlarda, zinapoyalarda, vestibyullarda, hojatxonalarda, dam olish xonalarida, ularga tutash xonalarda va xodim tomonidan mehnat faoliyati vaqtida foydalaniladigan shunga o'xshash boshqa [joylarda](#);

sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlarida, dorixonalarda, ta'lim tashkilotlarida, madaniyat muassasalarida, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlarida, sanatoriy muassasalarida va tibbiy-ijtimoiy [muassasalarida](#);

uy-joy xizmatlari, mehmonxona xizmatlari, vaqtinchalik joylashtirish va (yoki) vaqtinchalik yashab turishni ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun mo'ljallangan [xonalarda](#);

ko'p kvartirali uylarning yo'laklari va liftlarida, shuningdek bolalar va sport maydonchalarida, shu jumladan uylarga tutashgan hududda joylashgan [maydonchalarida](#);

xiyobonlarda, bog'larda, [plyajlarda](#).

3. Mazkur ilovaning 2-bandida keltirilgan (oltinchi xatboshi bundan mustasno) jamoat joylarida joylashtiriladigan ogohlantiruvchi belgining o'lchami kamida A5 shaklida (148 mm x 210 mm) bo'lishi lozim.

4. Mahalliy va uzoqqa qatnaydigan poyezdlarda, daryo kemalarida, avtobuslarda, metropoliten vagonlarida, taksida, shahar elektr transportida, havo kemalarida,

shuningdek jamoat transportining boshqa turlarida joylashtiriladigan ogohlantiruvchi belgining o'lchami kamida 50 mm x 50 mm bo'lishi lozim.

5. Jamoat transportida ogohlantiruvchi belgi yo'lovchilarga ko'rinadigan joyda joylashtirilishi lozim.


6. Binolar, xonalar va ochiq hududlarda joylashtiriladigan ogohlantiruvchi belgi hammaga ko'rinadigan joyda, yerdan (poldan) kamida 1,5 metr va 2,5 metrdan oshmaydigan balandlikda joylashtirilishi kerak.

7. Ogohlantiruvchi belgi "Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish hamda tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish taqiqlanadi" degan yozuv hamda ushbu talabni buzganlik uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan javobgarlik to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga joylashtirilishi mumkin.

Tamaki va alkogol mahsulotlari iste'moliga oid ogohlantiruvchi
belgilar hamda axborot lavhalarini joylashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
3-ILOVA

**Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek
tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish
uchun maxsus ajratilgan joylar to'g'risidagi axborot beruvchi
lavhaning namunasi, uni tayyorlash va joylashtirish**

1. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylar to'g'risidagi axborot beruvchi lavha namunasi:



2. Axborot beruvchi lavha tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylarda hammaga ko'rinadigan tarzda joylashtirilishi lozim.

3. Axborot beruvchi lavhaning:

o'lchami kamida A4 shaklida (210 mm x 297 mm) bo'lishi hamda u tayyorlanadigan qog'oz yoki boshqa axborot tashuvchining o'lchami kattalashtirilganda, undagi yozuvlarning o'lchami ham mutanosib ravishda kattalashtirilishi kerak;

harflar o'lchami 82 keglardan yoki punktdan kam bo'lmasligi, qatorlar oralig'i 1,2 intervalda bo'lishi lozim;

yzuvlar oq rangli fonda qora rangli shrift bilan bosib chiqarilishi hamda qog'ozning oqligi kamida 80 foiz bo'lishi, shuningdek boshqa axborot tashuvchilardan foydalanilganda ham fon va harflar rangi o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi;

yo'zuvlardagi so'zlar oddiy harflarda "yarim semiz" shriftida hamda yo'zuvlarning birinchi harflari "yarim semiz" shrift bilan bosh harflarda yo'zilishi kerak.

4. Axborot beruvchi lavha hammaga ko'rinadigan joyda yerdan (poldan) kamida 1,5 metr va 2,5 metrdan oshmaydigan balandlikda joylashtirilishi zarur.

Tamaki va alkogol mahsulotlari iste'moliga oid ogohlantiruvchi
belgilar hamda axborot lavhalarini joylashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
4-ILOVA

**Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek
tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish
uchun maxsus ajratilgan joylarda joylashtiriladigan tibbiy
ogohlantirish namunalari, uni tayyorlash va joylashtirish**

1. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish hamda tamaki va
nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan
joylarda joylashtiriladigan tibbiy ogohlantirish namunalari:

1-namuna



2-namuna



3-namuna



4-namuna



2. Tibbiy ogohlantirish namunalaridan biri tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish, chilim chekish, shuningdek tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalaridan foydalanish uchun maxsus ajratilgan joylarda hammaga ko'rinadigan tarzda joylashtirilishi lozim.

3. Tibbiy ogohlantirish namunalarining o'lchami kamida A5 shaklida (148 mm x 210 mm) bo'lishi lozim.

Tibbiy ogohlantirish namunasi tayyorlanadigan qog'oz yoki boshqa axborot tashuvchining o'lchami kattalashtirilganda undagi tasvirlarning o'lchami ham mutanosib

ravishda kattalashtirilishi lozim.

4. Tibbiy ogohlantirish namunalari yerdan (poldan) kamida 1,5 metr va 2,0 metrdan oshmaydigan balandlikda joylashtirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil 26-maydagi 4-son [buyrug'iga](#)
2-ILOVA

**O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy
hujjatlar
RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2016-yil 7-noyabrdagi 70-son "Alkogol va tamaki mahsulotlari iste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmaydigan ogohlantiruvchi hamda tamaki mahsulotini iste'mol qilish uchun maxsus ajratilgan joy va (yoki) xona haqida axborot beruvchi belgilarni tayyorlash hamda ularni joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi [buyrug'i](#) (ro'yxat raqami 2840, 2016-yil 30-noyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 48-son, 549-modda).

2. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 15-mh-son "O'zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi [buyrug'iga](#) (ro'yxat raqami 3313, 2021-yil 28-iyul) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son) ilovaning 344-bandi.